

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 07 | pp. 24-32 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARI KAPITALI TARKIBI TAHLILI



Maxametov Saidjalolxon Azamovich

Toshkent Xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: maqolada tijorat banklarning kapital tarkibiga qaratilgan ilmiy-nazariy jihatalar tadqiq qilingan. Mamlakatimiz tijorat banlarining kapital tarkibi tahlil qilingan, tijorat banklari kapital tarkibiga ta'sir qiluvchi salbiy omillar aniqlangan va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklar, kapital, kapitali monandligi, bank tizimi barqarorligi, bank resurslari, riskli aktivlar, ustav kapitali.

Аннотация: В статье исследованы научно-теоретические аспекты, связанные со структурой капитала коммерческих банков. Проведен анализ структуры капитала коммерческих банков нашей страны, выявлены негативные факторы, влияющие на формирование капитала коммерческих банков, а также разработаны научно-практические предложения по их устранению.

Ключевые слова: коммерческие банки, капитал, адекватность капитала, устойчивость банковской системы, банковские ресурсы, рискованные активы, уставный капитал.

Abstract: The article investigates the scientific and theoretical aspects related to the capital structure of commercial banks. It analyzes the capital structure of commercial banks in our country, identifies negative factors affecting the formation of bank capital, and develops scientific and practical recommendations aimed at eliminating these issues.

Keywords: commercial banks, capital, capital adequacy, banking system stability, bank resources, risk assets, charter capital.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish uchun birinchi navbatda, yuridik va jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlarini yanada oshirish, shuningdek, banklarning xalqaro kapital bozorlariga chiqishi hisobiga bank tizimiga qo'shimcha resurslarni jalb qilish chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Jahonda tijorat banklari aktivlari va passivlari sifatini oshirish bank tizimi faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, mijozlarning kreditlarga talabini qondirish, moliyaviy resurslarning samarali taqsimlashnashining zaruriy shartlaridan biri

hisoblanadi. Bu esa tijorat banklarida resurslar manbaini kengaytirish va ularning barqarorligini ta'minlash hamda aktivlar hajmini oshirish orqali bir tomondan ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'lsa, ikkinci tomondan iqtisodiy o'sishga turtki berish jihatidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, AQSH Federal depozitlarni sug'urtalash korporatsiyasi (The Federal Deposit Insurance Corporation (FDIC)) ma'lumotlariga ko'ra "AQSH bank tizimida depozitlarning umumiy hajmida talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlarning salmog'i 20 foizdan oshmasligi ta'minlangan".¹ Bu o'z navbatida tijorat banklari resurslari barqarorligini ta'minlagan holda bank aktivlari daromadliligi va likvidliligi ta'minlash va pirovard natijada, tijorat banklari moliyaviy barqarorlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Jahonda tijorat banklari resurslari barqarorligini ta'minlash, banklarda transformatsiya riskini va valyuta risklarini kamaytirish orqali aktiv operatsiyalarining daromadliligi va ularning risklilik darajasi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, tijorat banklarining xalqaro fond bozoriga chiqishi va mablag'larini jalb etishiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tijorat banklari resurslari tarkibidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish, resurs jalb qilish manbalarini kengaytirish, xalqaro miqyosda tijorat banklarining inqirozga yuz tutishi xavfini pasaytirish, tijorat banklari faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, moliya bozorida mijozlarni kreditga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, xalqaro miqyosda tijorat banklari resurs bazasini yanada kengaytirish va mustahkamlash masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodchi olimlarimizdan professor O.B. Sattarov fikriga ko'ra, mamlakatimizda tijorat banklarining nazoratini samarali olib borish juda ham muhim masalalardan biridir. Ya'ni bank kapitalining tarkibiy jihatdan to'g'ri tashkil etishi va uni samarali boshqarish natijasida, moliyaviy risklar bo'yicha yo'qotishlarni qoplashga minimal xarajat qilishga, ikkinchidan yuqori darajada daromad olishga erishish imkoniyatlari ko'rsatilgan. Shuning uchun bankning eng asosiy maqsadi "risk-foйда" qonuniyatini hisobga olib aktiv operatsiyalarning risklilik va foydaliligini o'zaro optimal nisbatda saqlashi kerakligini ta'kidlagan.² Tabiiyki, tijorat banklari kapital yetarliligi ularga va buning nazoratini samarali yo'lga qo'yish orqali banklarda daromad va risk o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga imkon beradi.

Bizning fikrimizcha, Bazel-1 va Bezel-2 standartlarida kapital tarkibi asosan joriy risklarning vujudga kelganda qoplash maqsad qilingan. Ammo Bazel-3 standartlari esa bank kapitali tarkibidan nobarqaror kapitalarni chiqarib tashlash orqali ushbu kapitalning ishonchliligini oshirgan va bank nafaqat joriy risklarni qoplashga balki, bank bankrot bo'lganda ham o'z oldidagi moliyaviy majburiyatlarni ham qoplashga asoslangan. Bazel-3 standartlarida kapital tarkibida asosiy kapitalga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, kapital tarkibidagi nobarqaror resurslari, jumladan subordinar qarzlarni kamaytirishga asoslangan.

¹ <https://www.fdic.gov> AQSH Federal Depozitlarni Sug'urtalash Korporatsiyasi (FDIC) rasmiy sayti statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

² Sattarov O.B. (2015). Bazel Qo'mitasining bank nazoratiga oid yangi talablari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari. – Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnal 4-son. 7 bet.

G. Plantin ilmiy ishlarida tijorat banklari kapitaliga qo'yilgan minimal talablar bilan yashirin bank faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, tijorat banklari kapitalining minimal darajasiga talablarning qo'yilishiga asosiy sabablardan biri bu ularning xususiy sektorga yo'naltirayotgan kreditlarining optimal leveraji ijtimoiy sohaning optimal leverajidan yuqoridir va bu tijorat banklariga ma'lum bir riskni olib keladi. Bu, o'z navbatida, banklar o'zlarining to'lovga layoqasizligi oqibatida banklarda hisobraqamlari bo'lgan va ushbu hisobraqamlaridagi pul resusrlaridan turli to'lovlarni amalga oshirishda foydalanadigan mijozlar uchun yuzaga keladigan barcha xarajatlarni hisobga ololmasliklari bilan ham bog'liqdir. Olimning fikricha agar tijorat banklari noaniq va yashirin bank sektorida kapitalni tartibga solishni chetlab o'tishlari mumkin bo'lsa, ehtimol eng yaxshi yechim sifatida kapital talablarini yumshatishni tarkif qilmoqda. Shunda shaffof bank sektorida likvidlilik oshib, aksincha yashirin bank sektorida esa likvidlilik ancha kamaydi. Shu bilan birga kapital talablarining kuchayishi esa yashirin bank faoliyatining kuchayishiga olib kelishi mumkin, va bu esa rasmiy va yashirin bank muassasalarining pul majburiyatlari xavfining umumiy o'sishiga olib keladi.³

Franklin Allen va Elena Carletti ilmiy ishlarida bankrotlik xarajatlari va segmentlangan depozit va qimmatli qog'ozlar bozorlari bo'lgan modelda ular tomonidan bank va firma kapitali tuzilmasini tanlashni hamda o'z kapitali va depozitlarni moliyalashtirish xarajatlarini yendogenlashtirgan. Ularning fikricha, turli risklarning neytralligiga qaramay, tijorat banklari uchun o'z kapitali depozitlariga qaraganda qadrliroqdir. Ushbu olimlarning fikricha, banklar riskli investitsion loyihalarni to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirganda, ular kapital yetariligi yuqori bo'lishi va uning diversifikatsiyalangan bo'lishi lozim. Ya'ni, riskli korxonalarga kreditlar berganda, banklar bankrotlik ehtimoli pastligi sababli kapitalning yuqori narxini diversifikatsiya qilish afzalliklari bilan qoplaydilar. Ular tomonidan olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatganki, mijozlarning bankrotlik xarajatlari yuqori bo'lsa, banklar kapitaldan foydalanmaydi va faqat bitta sektorga qarz beradilar. Bankrotlik xarajatlari kichik bo'lganda, banklar kapitalni saqlab qoladilar va uni diversifikatsiya qiladilar.⁴

J. Dagher va boshqalarning fikricha, tijorat banklari umumiy kapitalining minimal darajasi va umuman olganda, bankning turli yo'qotishlarni qoplash qobiliyati inqirozdan keyingi davrda siyosiy muhokamalar markazida bo'ldi. Yuqoridagi olimlarning ilmiy ishlari bank inqirozlarida ularning kreditorlari va mijozlariga zarar yetkazmaslik yoki 2008-yillarda boshlangan bank inqirozlari kabi krizis vaqtlarda banklarni ommaviy davlat tomonidan qayta kapitallashtirishga murojaat qilishning oldini olish uchun qancha kapital kerak bo'lishiga e'tibor qaratish orqali munozaralarga hissa qo'shadi. Ularning ilmiy ishlari, shuningdek, kapitalni tartibga solishni kuchaytirishning va ularga qo'yilgan minimal talablarni oshirishning ijtimoiy xarajatlarini bank kreditlari va foiz stavkalariga potensial ta'sirini tahlil qilishgan. Ularning ilmiy ishlari natijalari Moliyaviy Barqarorlik Kengashi (Financial Stability Board (FSB)) va Bazel qo'mitasi tomonidan tizimli ahamiyatga ega bo'lgan banklar uchun tavsiya etilgan yo'qotishlarni qoplash darajasini ham keng qo'llab-quvvatlaydi.⁵

³ Plantin, G. (2015). Shadow banking and bank capital regulation. *The Review of Financial Studies*, 28(1), 146-175.

⁴ Allen, F., Carletti, E., & Marquez, R. (2015). Deposits and bank capital structure. *Journal of Financial Economics*, 118(3), 601-619.

⁵ Dagher, J., Dell'Ariccia, M. G., Laeven, M. L., Ratnovski, M. L., & Tong, M. H. (2016). *Benefits and costs of bank capital*. International Monetary Fund.

O. De Jonghe ilmiy ishlarida 1994-2010-yillar oralig'ida 64 ta mamlakatning global statistik ma'lumotlaridan foydalangan holda tijorat banklari umumiy kapitalining dinamik harakatini ko'rib chiqqan. Tahlil natijalariga ko'ra tijorat banklari qarz mablag'larini kamaytirishni birinchi navbatda o'z kapitalini oshirish orqali erishgan. Aksincha, ular foydani ushlab turishni kamaytirish va aktivlarni sezilarli darajada kengaytirish orqali qarz mablag'larini ko'paytirishga intilishgan. Kapital tarkibini o'zgartirish va ularni oshirish turli mamlakatlarda turlicha amalga oshirilayotganligi aniqlangan. Tijorat banklari kapitaliga nisbatan talablarning kuchli bo'lgan, yaxshi nazorat monitoringi o'rnatilgan, rivojlangan kapital bozorlari va yuqori inflyatsiyaga ega bo'lgan mamlakatlarda kapital strukturasi tezroq o'zgartirilishi va moslashtirilishi kuzatilgan. Shuningdek, turli inqiroz davrida ham tijorat banklari kapital strukturasi tezroq o'zgartirishi aniqlangan.⁶

Leonardo Gambacorta va Hyun Song Shin tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar inqirozdan keyingi davrda Markaziy banklar pul-kredit siyosatida o'zgarishlar va ushbu o'zgarishlarning tijorat banklari kapitali bilan bog'liqligiga qaratilgan. Ularning tadqiqotlarida pul-kredit siyosatining maqsadlaridan biri sifatida tijorat banklari kreditlarining iqtisodiyotga ketishdagi to'siqlarni olib tashlash va qarz oluvchilar uchun kredit shartlarini engillashtirish keltirilgan. Ular tijorat banklarining umumiy kapitali bankning moliyalashtirish xarajatlarini ham, kreditlashning o'sishini ham muhim belgilovchi omil ekanligini aniqlagan. Tahlil natijalariga ko'ra, mamlakatlararo banklar darajasida o'tkazilgan tadqiqotda ular tijorat banklari kapitalining umumiy aktivlariga nisbatining 1 foiz punktga o'sishi banklar uchun kreditlarni moliyalashtirish xarajatlarining 4 bazaviy punktga qisqarishi va yillik kredit o'sishining 0,6 foiz punktga o'sishi bilan bog'liqligini aniqlagan.⁷

H.Fraisse, M.Lé, va D.Thesmar tomonidan kreditlar o'zgarish darajasidagi ma'lumotlardan foydalangan holda bank kapitaliga qo'yilgan talablarning korporativ mijozlarga kreditlar va bankning investitsion loyihalarni kreditlashiga ta'sirini tahlil qilingan. Ularning fikricha, Bazel II me'yoriy-huquqiy bazasida keltirilgan kapitalga qo'yilgan minimal talablari natijasida tijorat banklari kapitali tarkibi va o'zgarish tendensiyasi firmalar kapitaliga qaraganda keskin farq qiladi. Bu bizga firmalar tomonidan kreditga bo'lgan talablarining o'zgarishini va tijorat banklari tomonidan kredit taklifidagi o'zgarishlarni nazorat qilish imkonini beradi. Tahlil natijalariga ko'ra, bank kapitalining minimal darajasiga qo'yilgan talablarning 1 foizga oshishi kreditlash hajmining 10 foizga qisqartirishi aniqlangan. Bu kabi qisqartirishga qarshi o'laroq, korxona va firmalar turli banklarga murojaat qilish va kreditlar olishi mumkindir, ammo bu ham faqat qisman qoplashi mumkin. Banklar tomonidan kreditlash hajmining qisqarishi korxonalarning asosiy vositalariga qilinadigan investitsiyalariga salbiy ta'sir qilish aniqlangan. Xususan, bank kreditlari hajmining qisqarishi oqibatida korxonalarning asosiy vositaga qilinadigan investitsiyalari hajmini 2,6% ga qisqartirishi, ammo kreditlar hajmining qisqarishi korxonalar aylanma mablag'larining qisqarishiga olib kelmasligi empirik tahlillar orqali aniqlangan va isbotlab berilgan.⁸

⁶ De Jonghe, O., & Öztekin, Ö. (2015). Bank capital management: International evidence. *Journal of Financial Intermediation*, 24(2), 154-177.

⁷ Gambacorta, L., & Shin, H. S. (2018). Why bank capital matters for monetary policy. *Journal of Financial Intermediation*, 35, 17-29.

⁸ Fraisse, H., Lé, M., & Thesmar, D. (2020). The real effects of bank capital requirements. *Management Science*, 66(1), 5-23.

D.Kim, va W. Sohn tomonidan bank kapitali yetarliligining kreditlash hajmiga ta'sirini o'rganilgan. Ya'ni, ilmiy ishlarida bank kapitalining kreditlashga ta'siri bank likvidligi darajasiga qarab farqlanishini o'rganish uchun AQSH faoliyat olib borayotgan tijorat banklarining choraklik statistik ma'lumotlaridan foydalanilgan. Ular tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar natijasiga ko'ra, bank kapital o'sishining kredit o'sishiga ta'siri faqat yirik banklardar likvidlilik darajasi ta'minlangan bo'lsagina to'g'ri proporsional shaklda bo'lgan. Bu ijobiy munosabatlar o'tgan so'nggi moliyaviy inqiroz davri mobaynida sezilarliroq bo'lgan. Bu natija shuni ko'rsatadiki, bank kapitali faqat yirik banklar yetarli likvid aktivlarni saqlab qolgandan keyingina kreditlashga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.⁹

A.Garel, va A. Petit-Romec fikricha tijorat banklari kapitali bank faoliyatini tartibga solishning asosi hisoblanadi hamda bankning turli iqtisodiy zarbalarga bardosh berish qobiliyatini belgilovchi asosiy omildir. Bank kapitalini tartibga solish sohasida umumiy fikr shundan iboratki, kim tomonidan taqdim yetilishidan qat'i nazar, ko'proq bank kapitali yaxshiroq. Ushbu maqolada biz so'nggi moliyaviy inqiroz davrida bank kapitali provayderlarining investitsiya ufqi bank faoliyati uchun muhimmi yoki yo'qligini tekshiramiz. Biz qisqa muddatli investorlarga yega bo'lgan banklarning inqiroz davrida qimmatli qog'ozlar daromadi yomonlashganini kuzatamiz. Keyingi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu qisman qisqa muddatli investorlarga yega bo'lgan banklar inqirozdan oldin ko'proq tavakkal qilganliklari bilan bog'liq, lekin asosan inqiroz davrida ular yuqori savdo bosimini boshdan kechirganlari uchun. Natijalarimiz bank kapitalining inqiroz davrida yaxshiroq ishlashga yordam berishda iqtisodiy foydasini tasdiqlaydi. Biroq, biz bank kapitalini uning provayderlarining tabiatiga ko'ra parchalaganimizda, biz ko'proq kapital qisqa muddatli institutsional investorlar tomonidan taqdim yetilganda yomonroq ishlash bilan bog'liqligini ko'rsatamiz.¹⁰

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, statistik tahlil, qiyoslash, iqtisodiy-statistik tahlil, analiz, sintez usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizga ma'lumki tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlari iqtisodiyotda asosiy vositalarning yangilanishiga, fan va texnologiyalarning rivojlanishiga hissa qo'shadi.


Tijorat banklarida o'z kapitali umumiy resurslari tarkibida katta qismni egallamasada, uning bank tizimi barqarorligida xissasi yuqoridir. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi aksariyat tijorat banklarida umumiy kapitali jami resurslari tarkibida 15-20 foizni tashkil qilmoqda. Albatta bu ko'rsatkich past bo'lsada, tijorat banklariga riskli aktiv operatsiyalarini amalga oshirish uchun yetarli hisoblanadi.

Shuni ham alohida ta'kidlashimiz lozimki, tijorat banklari kapitali umumiy resurslari tarkibida ulushi past bo'lishi bilan bir qatorda ushbu kapitali takribida ham imtiyozli nokumulyativ aksiyalar, subordinar qarzlari kabi qarz mablag'lari joy olgan. Shundan kelib chiqqan holda regulyatorlar tomonidan tijorat banklari kapitali guruhlariga ajratiladi va ularning har biriga ma'lum bir talablar o'rnatiladi.

⁹ Kim, D., & Sohn, W. (2017). The effect of bank capital on lending: Does liquidity matter?. *Journal of Banking & Finance*, 77, 95-107.

¹⁰ Garel, A., & Petit-Romec, A. (2017). Bank capital in the crisis: It's not just how much you have but who provides it. *Journal of Banking & Finance*, 75, 152-166.

Quyidagi tahlillarimizda tijorat banklari kapitali holati, uning tarkibining o'zgarishi, regulyator tomonidan belgilangan me'yoriy darajalarning bajarilishi hamda tijorat banklari moliyaviy barqarorligi kabi ko'rsatkichlarni kuzatamiz.




1-rasm. Bank tizimi kapitali va uning o'zgarish dinamikasi (mlrd.so'mda).¹¹

Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda tijorat banklari kapitali oxirgi yetti yilda keskin oshgan. Xususan, 2017-yil 1-yanvar holatiga tijorat banklari kapitali 8,98 trln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib 79,56 trln.so'mga yetgan va ko'rilgan davr oralig'ida to'qqiz barobarga yaqin oshgan.

Shuningdek, tijorat banklari kapitalining yillar davomida o'zgarishi ham tahlil qilingan bo'lib, unga ko'ra eng katta o'zgarish 2017-yilda sobir bo'lgan. Xususan, 2017-yilda 2016-yilga nisbatan tijorat banklari kapitali 130,2 foizga o'zgargan. Ushbu o'zgarish tabiiy o'zgarish deyish mumkin emas. Ushbu o'zgarish asosan milliy valyuta devalvatsiyasi natijasida sodir bo'lgan. 2017-yil 1-oktyabrdan tijorat banklari ustav kapitalini milliy valyutada shakllantirish lozimligi belgilandi. O'sha davrda tijorat banklarida xorijiy valyutada shakllantirilgan ustav kapitalini belgilangan tarbida sotish orqali milliy valyutaga o'tkazilishi natijasida kapitali miqdori keskin oshishga sabab bo'ldi.

Tijorat banklari kapitali tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, unda kapitlar tarkibi asosan ustav kapitali, taqsimlanmagan foyda, zaxira kapitali hamda qo'shilgan kapitaldan tashkil topgan. Ushbu ko'rsatkichlardan eng yirigi bu ustav kapitali hisoblanadi. Xususan, 2017-yil 1-yanvar holatiga bank tizimi ustav kapitali 5,81 trln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko'rsatkich 59,86 trln.so'mni tashkil qilgan. Shuningdek, tijorat banklarining taqsimlanmagan foydasi ham katta ulushga. Xususan, 2017-yil 1-yanvar holatiga bank tizimida taqsimlanmagan foyda 1,67 trln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko'rsatkich 11,39 trln.so'mni tashkil qilgan.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-rasm. Bank tizimi kapitali tarkibining o'zgarish dinamikasi (mlrd.so'mda).¹²

Tijorat banklarining zaxira kapitali ham yillar davomida oshib borgan. Jumladan, 2017-yil 1-yanvar holatiga bank tizimida zaxira kapital 1,47 trln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko'rsatkich 7,32 trln.so'mni tashkil qilgan.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyati yetarlicha rivojlanmaganligini ko'plab statistik ma'lumotlardan ham ko'rishimiz mumkin. jumladan, tijorat banklari ustav kapitalida qo'shimcha kapital sezilarsiz ulushga ega bo'lib qolmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yil 1-yanvar holatiga bank tizimi kapitalida qo'shimcha kapital 0,04 trln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko'rsatkich 0,99 trln.so'mni tashkil qilmoqda.


Tijorat banklari kapitali va ustav kapitali miqdoriga ko'ra turkumlanishiga nasar solsak, unda 2016-yilda mamlakatimizda jami 27 ta tijorat banklari faoliyat yuritgan bo'lsa, undan katta qismi 100 mlrd.so'mgacha bo'lgan guruhda joylashgan. Xususan, 2017-yil 1-yanvar holatiga 27 ta banklardan 8 donasi kapitali 100 mlrd.so'mgacha bo'lgan banklar hisoblangan bo'lsa, 13 tasi ustav kapitali bo'yicha ushbu guruhga kirgan.

Keyingi yillarda tijorat banklari ustav kapitali hamda umumiy kapitalida katta o'zgarishlar bo'ldi. Buning natijasi asosan 2019-yildan boshlab sezilarli tus oldi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimizda jami 30 dona tijorat banklari faoliyat yuritgan bo'lsa, ulardan 100 mlrd.so'mdan 300 mlrd.so'mgacha bo'lgan guruhga jami kapitali bo'yicha 11 ta bank va ustav kapitali miqdori bo'yicha 13 dona tijorat banklari kirgan. Shuningdek, 2 trln.so'm va undan yuqori bo'lgan guruhga 2016-yilda bironta tijorat banklari ta'luqli bo'lmagan bo'lsa, 2020-yil 1-yanvar holatiga ushbu guruhga jami kapitali bo'yicha 6 ta bank va ustav kapitali miqdori bo'yicha ham 6 dona tijorat banklari kirgan.

¹² O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tahlil davomida ko‘rilgan vaziyatda tijorat banklari umumiy kapitali va ustav kapitali doim oshib borgan. Xususan, 2022-yil 1-yanvar holatiga kelib, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari soni 31 taga yetib, ulardan 2 trln.so‘m va undan yuqori bo‘lgan guruhga jami kapitali bo‘yicha 11 ta bank va ustav kapitali miqdori bo‘yicha ham 7 dona tijorat banklari kirmoqda.

Tijorat banklari kapitali oshishi bilan bir vaqtda ularning majburiyatlari ham oshib borgan. Ammo, tijorat banklari regulyator tomonidan belgilangan me‘yorlarga rioya qilishlari lozim. Ushbu holatni 3-rasm ma‘lumotlaridan tahlil qilamiz.



3-rasm. Bank tizimida kapitali yetarlilik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish.¹³

Tahlil natijalariga ko‘ra, tijorat banklarining umumiy kapital monandlik ko‘rsatkichi 2017-yil yanvar holatiga 14,7 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko‘rsatkich 17,8 foizni tashkil qilmoqda. Shu bilan birga, tijorat banklari umumiy kapitali monandlik darajasi eng yuqori bo‘lgan davr 2019-yilga to‘g‘ri kelib, unda ushbu ko‘rsatkich 23,5 foizga yetgan.

Tijorat banklarida birinchi kapital barqaror kapital hisoblanganligini inobatga olib, ushbu kapitalning minimal chegarasiga ham talablar belgilangan. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2017-yil yanvar holatiga birinchi darajali kapital monandligi 12,5 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko‘rsatkich 14,5 foizni tashkil qilmoqda. Shu bilan birga, tijorat banklari birinchi darajali kapitali monandlik darajasi eng yuqori bo‘lgan davr 2019-yilga to‘g‘ri kelib, unda ushbu ko‘rsatkich 19,6 foizni tashkil qilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda tijorat banklari kapitalida asosiy o‘rinni ustav kapitali egallamoqda. Ammo, tijorat banklarining foydalanmayotgan imkoniyatlari talaygina. Bunday imkoniyatlardan biri sifatida qimmatli qog‘ozlar bozorini keltirishimiz mumkin. Xususan, tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozorida faoliyatini kengaytirish orqali ularga bank kapitalini oshirish imkoniyati mavjud.

Markaziy bank tomonidan tijorat banklari kapitali monandligiga qo‘yilgan talablar tijorat banklari tomonidan bajarilmoqda. Shuningdek, tijorat banklari ushbu talablarni ortig‘i bilan bajarayotganligi uchun ularda ikkinchi darajali kapitalni oshirishga, hamda majburiyatlarini oshirgan holda ushbu yig‘ilgan moliyaviy resurslarni daromad keltiruvchi ammo riskli aktivlarga yo‘naltirish salohiyati saqdanib qolmoqda.

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti www.cbu.uz ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sattarov O.B. (2015). Bazel Qo'mitasining bank nazoratiga oid yangi talablari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari. – Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnal 4-son.
2. Plantin, G. (2015). Shadow banking and bank capital regulation. *The Review of Financial Studies*, 28(1), 146-175.
3. Allen, F., Carletti, E., & Marquez, R. (2015). Deposits and bank capital structure. *Journal of Financial Economics*, 118(3), 601-619.
4. Dagher, J., Dell'Ariccia, M. G., Laeven, M. L., Ratnovski, M. L., & Tong, M. H. (2016). *Benefits and costs of bank capital*. International Monetary Fund.
5. De Jonghe, O., & Öztekin, Ö. (2015). Bank capital management: International evidence. *Journal of Financial Intermediation*, 24(2), 154-177.
6. Gambacorta, L., & Shin, H. S. (2018). Why bank capital matters for monetary policy. *Journal of Financial Intermediation*, 35, 17-29.
7. Fraisse, H., Lé, M., & Thesmar, D. (2020). The real effects of bank capital requirements. *Management Science*, 66(1), 5-23.
8. Kim, D., & Sohn, W. (2017). The effect of bank capital on lending: Does liquidity matter?. *Journal of Banking & Finance*, 77, 95-107.
9. Garel, A., & Petit-Romec, A. (2017). Bank capital in the crisis: It's not just how much you have but who provides it. *Journal of Banking & Finance*, 75, 152-166.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari.
11. <https://www.fdic.gov> AQSH Federal Depozitlarni Sug'urtalash Korporatsiyasi (FDIC) rasmiy sayti statistik ma'lumotlari.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

